

TEXNOLOGIK TA'LIM BERISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Ismoilov To`ychi Djabborovich

JDPU, Texnologik ta`lim va tasviriy san`at fanlari kafedrasasi dotsenti,

Jizzax sh., O`zbekiston

e-mail: ismoilov_t@jspi.uz

Annotatsiya. Maqolada texnologik ta`lim berishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so`zlar: ta`lim, raqam, texnologiya, tizim, platforma, mobil qurilma, internet.

Аннотация. В статье излагается о необходимости, преимуществах пути использования цифровых технологии в обучение технологическом образовании.

Ключевые слова: цифр, технология, структура, платформа, мобиль, устройства, интернет.

Annotation. The article describes the necessity, advantages and importance of using digital technologies in technological education

Key words: technology, system, struktur, platforms, mobile, internet.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi ta`lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o`sha soha mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo`nalishning rivojlanish tendentsiyalarini qanchalik o`zlashtirganligi bilan belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi «Raqamli O`zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PF-6079-son Farmoni bilan mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta`lim, sog`liqni saqlash va qishloq xo`jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish vazifalari belgilab berilganligi oliy o`quv yurtlarining bosh vazifasi yuqori ko`nikmalarga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo`lgan, vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo`lida qamichdan bel bog`lab xizmat qiladigan kasbi komil mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekanligini inobatga olib, bugungi

davr talabalaridan kelib chiqib raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitishni yo'lga qo'yish va tashkil etishni taqozo etmoqda. Buning uchun esa, bolajak texnologik ta'lim o'qituvchilari raqamli texnologiyalarni bilishlari va ulardan samarali foydalanishni, bevosita raqamli muloqot qilishni va shu asnoda talabalarni mustaqil ta'lim bilan qamrab olishni talab etadi. Shunday ekan, raqamli texnologiyaning afzalliklari nimalardan iborat?

*Birinchi*dan, raqamli texnologiyaning ta'lim tizimiga kirib keldishi natijasida raqamli texnologiyaga bo'lgan e'tibor va qarashlar tezlik bilan o'zgarib ketdi. Chunki, raqamli texnologiya orqali raqamli texnologiya vositalari (multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektor)ga nisbatan ko'nikmalar yoki mavzuga oid materiallarni o'rganish tezroq, osonroqdir.

*Ikkinchi*dan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning yangi texnologiyalari ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga juda katta yordam bermoqda. Talabalarni bugungi kun talablariga muvofiq sifatli bilim olishlari uchun xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi orqali talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini kengroq jalb etish imkonini bermoqda. korxonalar va tashkilotlar raqamli texnologiya orqali ish faoliyatini yo'lga qo'ymoqda.

*Uchinchi*dan, talabalar yoki xodimlar raqamli texnologiya asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lganda an'anaviy o'qitish tizimi materiallarini o'rganishga qaraganda vaqtlarini kamroq sarflaydilar. Chunki, raqamli ta'lim platformalari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarni darslarga qiziqtirish darajasi odatdagi sinf muhitiga qaraganda samarali hisoblanadi.

*To'rtinchi*dan, raqamli texnologiya materiallarini tinglovchi an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda 5 barobar ko'proq o'rganadi, bu esa ularning darsni o'zlashtirish vaqtlarini ko'paytirmaydi, aksincha boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratadi.

*Beshinchi*dan, raqamli o'qitish texnologiyalari an'anaviy darslarda qoldiriladigan bo'shliqlarni to'ldirishga imkoniyat yaratadi. Aslida, raqamli texnologiyalarnig bunday vositalari keltiradigan ba'zi bir samaradorlik an'anaviy o'rganish usullari bilan deyarli farq qilib bo'lmaydi. Ammo, tarqatma materiallar va kitoblarga qog'oz sarflanmasligidan tortib, ma'lumotlarga tez kirish va vaqtni tejashga qadar, ta'lim xarajatlarini qisqartirish, mablag'larni tejash va talabalar uchun ta'limning samarali usulini taqdim etadi.

*Oltinchi*dan, keyingi 15 yil ichida hayotimizda mobil qurilmalarning so'nggi avlodlarining kirib kelishi, ulardan foydalangan holda Internet tarmog'i orqali dunyoda bo'layotgan voqea va hodisalarni tezkor ravishda kuzatib borish hamda barcha turdagi materiallarni (video, audio, matn, 3D, 5D, 7D grafikalar) tezkorlik bilan qabul qilish, saqlash va uzatish imkoniyatlari paydo bo'ldi hamda

raqamli texnologiyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa, har kungi an'anaviy o'qitish usullarini almashtirishga, auditoriyalar qanchalik shiddat bilan o'zgarib borayotganligi sababli, eski usullardan voz kechib, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o'qitish usullarini joriy qilish orqali qog'oz va daftarlar o'rniga oddiy planshetlardan, murakkab dasturlar va raqamli jihozlardan foydalanish imkonini bermogda.

Yettinchidan, dunyoning ko'plab yirik korporatsiyalari ta'lim sohasiga qo'yilgan o'qitish talablarini qobiliyat uchun beriladigan sertifikat sifatida qarab, diplomdan ko'ra ko'proq amaliy ko'nikmalarga e'tibor berishni boshladilar. Shu bois, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda talabalarni o'qitish, ularning nafaqat nazariy bilimini, balki amaliy ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladi.

Sakkizinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish yangi avlod tizimlarini va elektron jurnallar faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Bunda nafaqat professor-o'qituvchilar va talabalar, balki ularning ota-onalari ham ishtirok etishi, ya'ni ular elektron jurnal baholarini, berilgan uyga vazifalarni, testlarni va qayta aloqa shaklidagi har bir talabaning umumiy statistikasini ko'rib borish, shuningdek xabarlardan foydalanib, professor-o'qituvchilar bilan yozishmalar olib borish, eng asosiysi esa foydalanuvchining elektron madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni talim tizimiga joriy etilishi mamlakat talim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy talimni tashkil etish va talim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga jaxon xamjamiyatida muhim o`rin egallashimizni taminlaydi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси.

2. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личносно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019.

3. Abdullayev M., Saidahrор, G., & Ayurov, R. Raqamli iqtisodiyet - кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари. 25.06.2020.